



UDK: 9 (908)

Shaxnoza U. TASHEVA,
Tayanch doktorant, Qarshi davlat universiteti
E-mail: tashevashaxnoza719@gmail.com. ORCID: 0009-0006-7969-3111
Charos X. TEMIROVA,
Professor, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
E-mail: charos.temirova@mail.ru ORCID: 0009-0002-2703-0747

PhD F.Saidov taqrizi asosida

THE ROLE AND SOCIAL ACTIVITY OF THE RURAL INTELLEKTUALS OF THE SOUTHERN REGIONS IN THE DEVELOPMENT OF INDEPENDENT UZBEKISTAN.

Annotation

This article provides a scientific analysis of the contribution made by the rural intelligentsia of the southern regions of the Republic of Uzbekistan - Kashkadarya and Surkhandarya - to the country's socio-economic, scientific, educational, cultural, and healthcare reforms between 1991 and 2024. The activities of the hardworking rural intelligentsia in the region, their contribution to the upbringing of a harmoniously developed generation, and the development of society are highlighted based on archival sources and statistical data. The results of the analysis allow for a comprehensive scientific assessment of the phenomenon of the rural intelligentsia in the southern regions of Uzbekistan and also create an important experimental foundation for regional studies and the history of reforms.

Key words: Intelligentsia, social, economic, reform, development, education system, culture, healthcare, Kashkadarya, Surkhandarya, period of independence.

РОЛЬ И СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ СЕЛЬСКОЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЫ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ В РАЗВИТИИ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения анализируется вклад сельской интеллигенции южных областей Республики Узбекистан - Кашкадарья и Сурхандарья - в реформы в социально-экономической, научной, образовательной, культурной и медицинской сферах страны в период с 1991 по 2024 год. Деятельность трудолюбивой сельской интеллигенции региона, их вклад в воспитание гармонично развитого поколения и развитие общества освещаются на основе архивных источников и статистических данных. Результаты анализа позволяют научно комплексно оценить феномен сельской интеллигенции в южных регионах Узбекистана, а также создают важную экспериментальную основу для регионоведения и истории реформ.

Ключевые слова: Интеллигенция, социальная, экономическая, реформа, развитие, система образования, культура, здравоохранение, Кашкадарья, Сурхандарья, период независимости.

MUSTAQIL O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA JANUBIY VILOYATLAR QISHLOQ ZIYOLILARINING O‘RNI VA IJTIMOY FAOLLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlari – Qashqadaryo va Surxondaryo qishloq ziyolilarining 1991-2024 yillar oralig‘idagi bo‘lgan davrda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, fan, ta‘lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash sohalariga oid islohotlarda qo‘shgan hissasi ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Hududdagi zaxmatkash qishloq ziyolilari faoliyati, ularning barkamol avlod tarbiyasi hamda jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissalar arxiv manbaalari va statistik ma‘lumotlar asosida yoritib beriladi.

Tahlil natijalari O‘zbekiston janubiy hududlarida qishloq ziyolilari fenomenining ilmiy jihatdan kompleks baholash imkonini yaratadi va shuningdek, mintaqashunoslik va islohotlar tarixi fanlari uchun muhim tajribaviy zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: Ziyolilar, ijtimoiy, iqtisodiy, islohot, taraqqiyot, ta‘lim tizimi, madaniyat, sog‘liqni saqlash, Qashqadaryo, Surxondaryo, mustaqillik davri.

Kirish. Qashqadaryo va Surxonrayo viloyatlari O‘zbekistonning janubiy mintaqasini tashkil etib, o‘ziga xos geografik, iqlimiy, tarixiy va madaniy xususiyatlari bilan Respublikaning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Mazkur hudud nafaqat tabiiy o‘ziga xos resurslariga, balki qadimiy sivilizatsiya markazlaridan birida shakllangan o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy an‘analariga ega ekanligi bilan ilmiy jihatdan o‘ziga xos qiziqish uyg‘otadi. Arxelogik va tarixiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, mazkur hudud Kushon, Yunon-Baqtriya va undan keyingi davr davlatchilik tizimlarining ta‘sir

doirasida bo‘lib, bu holat madaniy intellektual qatlamning shakllanishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston taraqqiyotining mustaqillikdan keyingi davrlarida amalga oshirilgan tizimli islohotlar mintaqaviy darajada sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Ushbu transformatsion jarayonlar qishloq hududlari ziyoli qatlamini jamiyat hayotidagi rolini yanada muhim va ko‘p qirrali qiladi. Ijtimoiy tarix va mintaqashunoslik nuqtai nazaridan qishloq ziyolilari qatlamining shakllanish jarayoni uzoq muddatli tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Asrlar davomida shakllanib kelgan va

mustaqillik yillariga kelib o'ziga xos tarzda yangi bosqichga chiqqan ta'lim, fan, madaniyat sohaslaridagi tizimli islohotlar janubiy viloyatlarda intellektual qatlarning rivojlanishiga va o'zini ro'yobga chiqarishiga qulay zamin yaratdi. Xususan, huquqiy meyoriy bazaning takomillashuvi, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi, kadrlar tayyorlash tizimining kengaytirilishi janubiy viloyatlarda o'ziga xos faol, ijodkor va fidokor ziyoli qatlamni shakllantirish imkonini yaratdi.

Tahlil natijasida quyidagi sohalarga oid ziyolilarni tizimlashtirish maqsadga muvofiq:

Ta'lim sohasi. Janubiy viloyatlarning ta'lim tizimi rivojiga xizmat qo'shgan bir qator ziyolilar hissasi ilmiy jihatdan jamiyat taraqqiyoti uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Fanlar nuqtai nazaridan M.Sharopova, umumta'lim va oliy ta'lim sohasida A.Irkayev, E.Jalolov, R.Rahimov, B.Eshov, T.Turdiyev, M.Ergasheva, N.Uzoqov, N.Belalov, R.Xalikova, G.Mo'minova, Sh.Shaydullayev, E.Torayevlarning pedagogik hamda ilmiy metodologik faoliyati janubiy hududlarda ta'lim sifatini yuksaltirish va kadrlar tayyorlash tizimi rivojiga munisib hissa qo'shdilar. Ushbu ta'lim berishga asoslangan faoliyat nafaqat o'quv jarayonini tashkil etish, balki ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va yosh avlodni intellektual salohiyatini shakllantirish jihatidan ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Madaniyat, adabiyot sohasi. Madaniy hayotni rivojlantirishda A. Oripov, Samar Nuriy, X. Temirov, T. Boriyev, O. Komilov, Sh. Eshmirzayeva, B. Mengligulov va A. I. Molodsovalar faoliyati mintaqaviy madaniyat identifikatsiyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Bu ziyolilar mahalliy an'analarni zamonaviy madaniy meyorlar asosida uyg'unlashtirish orqali Qashqadaryo va Surxondaryo ziyolilarining madaniy hayotini jonlashtirish, xalq madaniy hayotini boyitish va milliy qadriyatlarini avlodlardan avlodga o'tkazish nuqtai nazaridan harakat qildilar.

Sport sohasi. Sport sohasiga hududda juda katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bu nafaqat davlat tomonidan, balki xususiy tadbirkorlar tomonidan ham qo'llab quvvatlanib borilgan. N. Yoldoshev, T. Muxammadaliyev, O'. To'rayev va I. Xudoyorovlarning faoliyati viloyat sport sohasi Ichida eng e'tirof etilganlar qatoriga kirdi.

Boshqa strategik sohalari. X.Mahkamov, Axmad Narzullayev (Surxondaryo, fermer), Abdulla Oripov (shoir), Murodillo Saidov, Soib Usmonov, Hasan Sayfiyev, To'rayev Ahmad, Xalilov Odil, T. Xidirov, Miraxmedov Inoyat, Y. Inoyatovlar faoliyati mintaqah iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'p qirrali hissa qo'shdilar.

Ushbu ziyolilarning faoliyati mintaqada boshqaruv samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi sohasiga innovatsion yondashuvlarni jorey etish, milliy mintalitetni tarixiy tajribalar asosida ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirish nuqtai nazaridan ilmiy tahlilga loyiqdir.

Mazkur maqola yuqorida sanab o'tilgan soha vakillari faoliyatini arxiv manbaalar, statistik manbaalar va qiyosiy tahliliy metod yordamida kompleks tarzda tadqiq qilishni maqsad qiladi. Maqola janubiy viloyatlarda qishloq ziyolilarining tarixi, ijtimoiy yangilanish jarayonlari, islohorlar samaradorligi, va muammolarini o'rganuvchi mutaxassislar uchun nazariy hamda empirik ahamiyat kasb etishi kurilmoqda.

Metodologik asoslar. Mazkur maqola 07.00.01 "O'zbekiston tarixi" mutaxassisligi doirasida tarixshunoslikning fundamental metodologik tamoyillariga asoslangan holda yozildi. Tahlil jarayoniga tarixiylik, obyektivlik, xolislik, kompleks tamoyillar doirasida yondashildi.

Tarixiy-tahliliy yondashuv: janubiy hududlarning mustaqillik yillarida fan, madaniyat, ta'lim, sport sohalari bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar va ularda ziyolilarning

utgan o'rni bosqichma-bosqich xronologik ketma-ketlikda tahlil qilindi.

Manbaashunoslik tahlili: tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, statistic ma'lumotlar, davlat mukofotlari bilan taqdirlangan shaxslarga oid hokimlik qarorlari va boshq arasmiy manbaalar birlamchi manbaa sifatida tanqidiy tahlil qilindi.

Biografik yondashuv: qishloq ziyolilarining jamiyatdagi o'rni aniq shaxslar doirasida (xususan, A.Oripov, iqtisodchi H.Mahkamov, ta'lim fidoiylari M.Sharopova, S.Abdunazarova kabilari) misolida, ularning hayot yo'li va ijodiy merosi asosida o'rganishga urg'u berildi.

Tarixiy-tizimli yondashuv: qishloq ziyolilari faoliyatini alohida hodisa emas, balki jamiyatni demokratlashtirish va modernizatsiya qilish jarayonlarining uzviy qismi sifatida, iqtisodiy va madaniy islohotlar bilan bog'liqlikda o'rganish imkonini beradi.

Natijalar va muhokamalar. Respublikaning janubiy viloyatlari bo'lmish Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi o'ziga xos iqlim sharoitlari va qadimiy turmush tarziga ega bo'lib, bu terda jamiyat hayotining turli jabhalari rivojiga hissa qo'shib kelayotgan ziyolilar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hududda yillar davomida madaniyat, fan, ta'lim sohalari rivojlanishi uchun imkoniyat yaratilildi va moddiy-texnik baza mustahkamlandi. Buning natijasi o'laroq hududda ta'lim, fan, madaniyat va boshqa sohalarda o'ziga xos ziyolilar qatlami shakllandi va ular jamiyatni modernizatsiya qilishda o'ziga xos hissa qo'shdilar.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan kadrlarni taqdirlash uchun ta'sis qilingan davlat mukofotlari va unvonlar mahalliy ziyolilarning mehnatini munosib taqdirlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyati ta'lim tizimida munosib hissa qo'shgan ziyoli ayol Muhabbat Sharopova birinchilardan bo'lib matematika fani uchun bolalarga qo'llanma yaratdi. Ining shogirdlari Respublika va xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritganlar va buning natijasida Muhabbat Sharopova 2016 yilda "O'zbekiston qahramoni" unvoniga savovor bo'ldi.

Shuningdek, ishlab chiqarish va iqtisodiyot sohaslarida fidokorona mehnat qilgan alohida e'tiborga loyiq. Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritgan tajribali machinist Hamza Mahkamov temir yo'llari jumladan tezyurar poyezdlar harakati va yo'llar rekonstruksiyalarida qatnashib, mamakatning transit salohiyatini oshirishga alohida xissa qo'shdi. Uning mehnati Respublikaning transit salohiyati oshirishiga sabab bo'ldi, xususan transafg'on yo'lagi orqali Hind okeaniga chiqish imkoniyati kengaydi. Shuningdek, Denov tumani qishloq xo'jaligini rivojlantirish va tuproq xosildorligini oshirishga xizmat qilgan Ahman Narzullayev 900 nafarda ortiq kishini ish bilan ta'minladi. 2003 yilda u "O'zbekiston qahramoni" unvoni bilan mukofotlandi.

Ijtimoiy madaniy soha rivojiga xissa qo'shgan buyuk yangi o'zbek adabiyoti namoyandasi A.Oripov xizmatini alohida ta'kislash mumkin. U nafaqat millat madhiyasi muallifi, balki butun dunyoga e'tirof etilgan ijodkor. Allomalar ijodi avlodlar qalbidan eng go'zal fazilatlarini tarbiyalaydi. Shuningdek, A.Irkayev butun Respublikada ma'naviyatshunoslik fanini chuqur targ'ib qilgan va fanning o'qitilishi uchun dasturlar ishlab chiqdi. Madaniyat sohasida viloyat radio va televideniya sohasining bugungi qiyofaga kelishiga katta xizmat qilgan, viloyatda ko'zga ko'ringan futbol sharhlovchisi X.Temirov, shuningdek viloyatda tarix fani bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan olim B.Eshov, sog'liqni saqlash sohasida o'ziga xos mehnat qilgan Hasan Sayfiyevich, Ahmad To'rayev va Malohat Astanova kabi qishloq ziyolilarini kiritish mumkin.

Umuman olganda Respublikaning janubiy viloyatlarining chekka qishloqlarida voyaga yetgan ziyoli qatlam nafaqat, viloyat rivojiga, balki Respublika miqyosida sohalar rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Xulosa. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari yashab faoliyat ko'rsatayotgan qishloq ziyolilarining jamiyat hayotining turli jabhalari, xususan, fan, ta'lim, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash tizimlari rivojiga qo'shgan hissasi quyidagich xulosalanadi:

Ilmiy va pedagogik salohiyatning o'sishi: vohada ta'lim tizimini rivojlantirishda va malakali kadrlar tayyorlashda salmoqli natijalarga erishildi. Ta'lim fidoiylari va pedagoglar yosh avlodni yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashda munosib hissa qo'shmoqdalar.

Madaniyat va ma'naviyatni yukdaltirish: Qishloq ziyolilari vohaning intellektual salohiyatini shakllantirishda,

xalqimiz tarixiy qadriyatlarini saqlash va madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Sport maktablarining shakllanishi: Tajribali mutaxassislar va murabbiylar tomonidan yaratilgan sport maktablari nafaqat milliy chempionlarni shakllantirdi, balki yosh avlodni sog'lom turmush tarziga yo'naltirdi. Ular yosh avlodni jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda o'ziga xos maktab vazifasini o'tadilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni: iqtisodiyot, agrar, boshqaruv va boshqa sohalaridagi qishloq ziyolilari o'zlarining amaliy faoliyatlari bilan hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita xizmat qilib kelmoqda.

Xulosa qilganda, janubiy viloyatlardagi qishloq ziyolilarining turli sohalaridagi fidokorona faoliyati hududning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qiyofasini yuksaltirishda xizmat qilib, barkamol avlodni shakllantirish borasidagi siyosatga munosib poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bahodir Eshov Fenomeni. - Qarshi: Ilm-fan-ma'naviyat. 2024. -B. 8.
2. O'zbekiston tarixchilari. I jild. Bibliografik ma'lumotnoma. -Toshkent: Fan va texnologiya.2017. -B. .237
3. Qashqadaryo ilm yulduzlari. - Qarshi: Intellekt. 2023. -Bb. .12,15,17
4. Ashurova Sh. Yaxshilar tajallisi. -Qarshi: Nasaf. 2009. -B. 213.
5. Ashurova Sh. Nasaf tajassumi. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2006. -B.232.
6. Temirov H. Yurakdagi ehtirom. - Qarshi: Meros. -B. 7
7. Sharapov Sh. El ardog'idagi odamlar. -Toshkent: Aloqachi. 2012l -B.28
8. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali.№9 2024.-B. 3.
9. O'zbekiston Qahramonlari. Ilmiy-ommabop nashr. -Toshkent: Adabiyot. 2022. -B. 196
10. Turdiyev T. Denov-Surxandaryo sayqali. (To'plam) Surxon-nashr. 2024 -Bb.368-369
11. Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ma'lumotlar bazasi -Toshkent: O'zbekiston. 2016.-Bb. 17-18.
12. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi 587-Fond
13. Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi 829-Fond
14. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi 728-Fonf.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi 1091-Fond.